

## YUKSAK PSIXIK FUNKSIYALARNING TARKIB TOPISHI

*22 maktab Qo'chqarova Ozodaxon Alijonovna*

*18 maktab Davronova Zohidaxon Tursunaliyevna*

*38 maktab Aliyeva Dildoraxon Siltonbekovna*

*31 maktab Po'latova Sadoqat Abduhalilovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixologiya o'quv fani sifatida o'qitish shakli, yuksak psixik funksiyalarning tarkib topishi, psixologiya fanining tarmoqlari, psixologiya predmeti sifatida xulqning tanlanishi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** psixik funksiyalar, psixologiya, metodologik muammolar, obyektiv tadqiqot.

**Kirish:** Ma'lumki, psixologik bilimlar taraqqiyotining butun bir tarixida psixologiya predmetining uchta ta'rif mavjud; ruh haqidagi fan, ong haqidagi fan va xulq haqidagi fan. Psixologiyani ruh to'g'risidagi fan sifatida talqin etish, ruhni izohiy printsiptir deb uning faoliyat doirasini nihoyatda cheklab qo'ygan. Ongni psixologiyaning predmeti sifatida talqin etish va psixikaning ongli qismini tadqiqot obyektiga aylantirib, bir vaqtning o'zida ong, ong ham predmet, ham izohiy printsiptir bo'lib xizmat qilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Psixologiyani o'rganish insonni psixika to'g'risidagi va psixik hayotning turli xil voqealari asosidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shuning bilan birga odam aqlini ham o'stirishga yordam beradi. Odam aqlini o'stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal etish qobiliyatini rivojlantirishda, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay olish va boshqalarning nutqini to'g'ri tushuna bilishda ham o'z ifodasini topadi. Albatta, har bir fan bilan shug'ullanish shaxsni kamolga yetkazadi. Lekin psixologiya bu sohada muhim o'rin tutadi. Psixologiya predmeti sifatida xulqning tanlanishi ong psixologiyasi subyekt tizimini yengib, psixologiyani obyektiv

tadqiqot yo`liga olib chiqdi. Biroq ayni vaqtda psixologiya psixika va ongni o`z tadqiqot predmeti sifatida yo`qotdi. Inson psixologiyani o`rganar ekan, dastlab o`z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e`tibor qaratadi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o`z aql-idrokining ko`proq o`shishiga yordam beradi.

**Natijalar:** Jahon psixologiyasi fanida xulq-atvor, muomala va faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillarning eng asosiy tariqasida insonning emotsional hayoti yotishi aksariyat nazariyotchi psixologlar tarafidan ta'kidlab o'tiladi. Bu talqinning haqqoniyligiga hech qanday e'tirozlar bo'lishi mumkin emas. Sababi uahbu omil eksperimental psixologiyaning mustaqil soha sifatida vujudga kelishidan e'tiboran ustuvor, dalil taqozo etmaydigan atribut singari tadqiqot predmeti mohiyatiga singib ketgan. Binobarin, psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati va miyaning mahsulidir. Psixika borliqning sezgi organlari yordamida insonning miyasiga bevosita ta'sir qilishi yordamida vujudga kelib, bilish jarayonlarida, shaxsning xususiyati va holatlarida, diqqati, his-tuyg'ulari, xarakter xislatlarida, qiziqishi hamda ehtiyojlarida o'z ifodasini topadi.

**Muhokama:** Psixikaning tarkibiy qismlari faoliyat, xulq, muomala yaqqol namoyon bo'lish xususiyatiga ega bo'lsa, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechinmalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar miyada mujassamlashgani uchun ular ko'zga ko'rinmaydi. Psixologiya fanining keyingi vaqtdagi taraqqiyoti ular orasidagi bir qanega tafovutlarni keltirib chiqardi. Psixologik bilimlarni o`zlashtirish, ulardan amaliyotda foydalanish uchun fanning hamma sohalari bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish kerak. Psixologiya o`qitishni qulaylashtirish faqat metodologik masalalar yechimini qidirish bilan kifoyalaniq qolmasdan, balki ta'lim berish, o`zlashtirish, xabarlarni qabul qilishning yangi shakllari, vositalari va variantlarini yaratishni ham qamrab oladi. Ayniqsa, hozirgi kunda iqtidorli bolalar, aqliy salohiyati yuksak o`quvchilar muammosi asosiy ahamiyat kasb etmoqda.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, psixikani tadqiq qilish shaxsning butun ongli faoliyatini, uning ham nazariy, ham amaliy hayot faoliyatini o'rganishdir. «Odamning ongliligi uning turli-tuman faoliyatida, xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Inson shaxsi har xil shakl va mohiyatga ega bo'lgan nazariy, shuningdek amaliy faoliyatlarda tarkib topadi. Bunda muhit, irsiy belgilar, ijtimoiy ta'sir muhim omillar sanaladi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. A.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.Usmanova, I.Haydarov. Umumiy psixologiya. T. 2018.
2. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017.
3. G'oziyev E.G'. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent, Universitet, 2003.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – T.: TDPU, 2010.